

TELEGRAM MESSENGERIDA PSIXOTROP MODDALARNING NOQONUNIY SAVDOSI BILAN SHUG'ULLANUVCHI JINOIY GURUHLAR FAOLIYATIGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY VA TEXNIK YECHIMLARI

Maxammadjonov Muhammadali Muzaffar o'g'li

IIV akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Mazkur bitiruv malakaviy ishida Telegram messengeri orqali psixotrop moddalar bilan noqonuniy savdo qilish holatlari, ularning jamiyatga salbiy ta'siri hamda bunga qarshi huquqiy va texnik choralar tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Telegramda faoliyat yuritayotgan jinoyat guruhlarining ishlash uslublari, anonimlikdan foydalanish, kriptovalyuta orqali hisob-kitob qilish va avtomatlashtirilgan botlardan foydalanish kabi jihatlarga qaratilgan. Ishda O'zbekistondagi real holatlar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazilib, mavjud qonunchilik bazasi va xalqaro tajribalar bilan taqqoslash asosida samarali yechimlar taklif etiladi. Xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli forensika kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida Telegram'dagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Telegram, psixotrop moddalar, noqonuniy savdo, jinoyat guruhi, kriptovalyuta, anonimlik, sun'iy intellekt, huquqiy yechim, texnik yechim, O'zbekiston, narkotrafik, kiberyechimlar, botlar, raqamli forensika.

Аннотация: В данной выпускной квалификационной работе рассматриваются случаи незаконной торговли психотропными веществами через мессенджер Telegram, их негативное влияние на общество, а также правовые и технические меры по борьбе с этим явлением. Основное внимание уделяется методам деятельности преступных группировок, действующих в Telegram, таким как использование анонимности, расчёты с помощью криптовалюты и применение автоматизированных ботов. В работе проводится анализ на основе реальных случаев и статистических данных из Узбекистана, сравнивается существующая

законодательная база с международным опытом и предлагаются эффективные решения. В частности, рассматриваются возможности усиления борьбы с преступностью в Telegram с помощью современных технологий, таких как искусственный интеллект, анализ больших данных и цифровая криминалистика.

Ключевые слова: Telegram, психотропные вещества, незаконная торговля, преступная группировка, криптовалюта, анонимность, искусственный интеллект, правовое решение, техническое решение, Узбекистан, наркотрафик, киберрешения, боты, цифровая криминалистика.

Abstract: This final qualifying work examines the cases of illegal trade in psychotropic substances through the Telegram messenger, their negative impact on society, and the legal and technical measures to combat them. The main focus is on the operating methods of criminal groups active on Telegram, such as the use of anonymity, cryptocurrency-based transactions, and automated bots. The study analyzes real-life cases and statistical data from Uzbekistan, compares the existing legal framework with international practices, and proposes effective solutions. In particular, it explores the potential of modern technologies such as artificial intelligence, big data analysis, and digital forensics to enhance the fight against crime on Telegram.

Keywords: Telegram, psychotropic substances, illegal trade, criminal group, cryptocurrency, anonymity, artificial intelligence, legal solution, technical solution, Uzbekistan, drug trafficking, cyber solutions, bots, digital forensics.

Telegram messenjerining shifrlangan xabar almashuvi va qo‘shimcha funksiyalari jinoyatchilar tomonidan keng foydalanilyapti. So‘nggi yillarda psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi telegram messenjeriga ko‘chishi jiddiy muammolar keltirib chiqarmoqda. Telegram — kuchli maxfiylik va anonimlikni ta‘minlaydigan platforma bo‘lib, giyohvandlik vositalari sotuvchilari uchun *“anonim onlayn bozor”*ga aylandi. Endi psixotrop moddalarni klassik sotish usullari yo‘qolib, onlayt platformalarga ko‘chishi xaridorlarga dorilarni ancha tez yetib borishiga zamin yaratmoqda. Masalan, amfetamin, mdma, LSD va “sintetik” dorilar endi telegram messenjerida tezda va xavfsiz sotilmoqda.

Hududiy xavfsizlikni ta'minlash va aholi salomatligini saqlash maqsadida Telegramdagi noqonuniy faoliyatga qarshi kurash dolzarb masalaga aylandi. Mavjud tadqiqotlar va treninglar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda onlayn narkotrafik, xususan Telegram orqali ishlovchi guruhlar ustidan nazoratni kuchaytirish uchun yetarlicha bilim va vositalar zarur.

Hozirda O'zbekistonda Telegram messenjeri giyohvandlik savdosi uchun ommaviy platformaga aylandi. Asosiy savdo usuli – **“zakladka”** (*narkotikni yashirin joyga qo'yib ketish*) orqali anonim xaridordir. Masalan, Yunusobod tumanida o'tkazilgan amaliyotda IIV xodimlari tomonidan 20 ga yaqin shaxs Telegramdagi narkotrafik kanal a'zosi bo'lib, dori zaxiralarini yashirin joylarga joylab, xaridorlarga yetkazib berishgan 20 ga yaqin shaxs ushlandi. Ushbu kanal administratoriga har bir topshiriq uchun 300–500 AQSh dollari to'langan. 2022–2023 yillarda qo'lga olingan bu guruh a'zolari jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jazoga tortilgan. Shu kabi holatlar O'zbekistonda tobora ko'paymoqda. Masalan, Toshkent viloyatida o'tkazilgan tezkor tadbirlarda 7 kun ichida 16,3 kg giyohvandlik vositasi va 1 852 dona kuchli ta'sir qiluvchi psixotrop dori ushlandi. Bu operatsiyalarda 78 ta jinoyat holati aniqlangan. Shuningdek, 458 ta internet **“narkografiti”** (*dori reklama yozuvi*) yo'q qilindi. Bu ma'lumotlar ko'rsatadiki, psixotrop moddalar onlayn va mahalliy tarmoqlarda keng aylanmoqda, odamlar hayotiga tahdid solmoqda. Aslida, jinoiy guruhlar o'z faoliyatini murakkab ochiq kodli va yopiq kanallarda olib boradi. Ular xaridorlarni Telegram kanallari yoki yashirin chatlar orqali jalb etadi, to'lovni kriptovalyuta yoki naqd pul shaklida oladi. Bunday muhitda faktik holatni izlash va jinoyatchilarni aniqlash qiyin. Shu bois, real holatlar hukumat e'tiborini tortib, huquq-tartibot organlarini zamonaviy yechimlar qo'llashga undamoqda.

Telegram messenjeri zamonaviy texnologik taraqqiyot natijasida foydalanuvchilar orasida juda keng tarqalgan. Biroq, bu platformaning yuqori darajadagi shifrlanishi, anonimlikni saqlash imkoniyati, botlar va kanallar orqali keng auditoriyaga tezkor axborot yetkazish kabi funksiyalari jinoyatchilar tomonidan ham faol ravishda foydalanilmoqda. Ayniqsa, psixotrop moddalar savdosi, noqonuniy qurol savdosi, odam savdosi, porno materiallar tarqatish kabi jinoyatlarda Telegramdan foydalanilmoqda. Bu esa davlat organlari uchun huquqiy va texnik jihatdan qiyin muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 273-moddasi, 3-qism "d" bandida "Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish" jinoyati "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Unga ko'ra internet va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib sodirgan jinoyat og'illashtiruvchi holat sifatida keltirib o'tilgan. Xususan, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 56⁴-moddasida "Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish" deb nomlangan modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-oktabrdagi O'RQ-971-sonli Qonuniga asosan kiritilgan. Ushbu moddaning dispozitsiyasida "Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash, xuddi shuningdek ularni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish" uchun "huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoxud huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi" deb javobgarlik asoslari va jazo chorasi aniq qilib ko'rsatilgan. Jinoyat kodeksida esa "Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish" deb nomlangan modda yoki band qo'shilmagan.

Texnologik yechimlar jinoiy guruhlar internetdagi harakatiga qarshi samarali kurashish uchun muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, *sun'iy intellekt (SI)* va katta ma'lumotlarni tahlil qilish yo'li bilan Telegram kabi messenjerlardagi yashirin faoliyatni aniqlash mumkin. Yaponiyalik tadqiqotchilarining yaqinda namoyish etgan tizimi kabi algoritmlar, "*sotuv*" so'zi o'rniga ishlatiladigan "*qora jargon*"ni aniqlay oladi. AI

murakkab qo'shma iboralarni korxona tarmoqlaridan ajratib, ilg'or aniqlik bilan yangi narkotik kodlari va ularning ulanishlarini topadi. Raqamli izlar va kriptovalyutani kuzatish ham eng yaxshi va samarali yechimlardan biridir. Giyohvand moddalar uchun to'lov ko'pincha kripto bilan amalga oshirilganligi sabab, blockchain tahlili bizga qo'l keladi. Masalan, Xitoy politsiyasi yaqinda Telegram va VPN trafigini kuzatishga mo'ljallangan AI asboblarni taqdim etdi. Bunday texnologiyalar jinoyatchilarning IP manzili, tranzaksiyalar tarixi va telefon kontaktlarini aniqlashga mo'ljallangan. Shuningdek, elektron izlar (chatlardan olingan ma'lumot, skrinshotlar va moliyaviy hujjatlarni tekshirish) ham tergovda qo'llaniladi. Pavel Durov 2024-yil sentabrida Telegram siyosatini o'zgartirib, noqonuniy qidiruvlarni bloklash va qonuniy talab bo'lganda foydalanuvchi ma'lumotlarini huquq-tartibot idoralariga yetkazish qarori haqida e'lon qildi. Bu kabi sa'y-harakatlar maxfiy ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatchilik xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, xalqaro tajribalar ham joriy etilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kontentni filtrlash va sun'iy intellektli monitoring tizimlari yordamida Telegramdagi giyohvandlik reklamasini kuzatish tizimi joriy etilgan. Hindiston va Rossiyada esa jinoiy guruhlarini aniqlash uchun Telegramdagi guruhlariga agentlarni jalb qilish amaliyotlari mavjud. Xulosa qilib aytganda, texnik vositalar – ***sun'iy intellekt, blockchain analitikasi, raqamli forensika*** – bugungi kunda Telegram orqali psixotrop moddalar savdosini aniqlash va oldini olishda muhim rol o'ynamoqda.

Telegramdagi psixotrop moddalar noqonuniy savdosi jinoiy guruhlar uchun qulay vosita bo'lib qolmoqda. Muammoni bartaraf etish uchun huquqiy va texnik yechimlarni birgalikda qo'llash lozim. Avvalo, jinoyat kodeksi va boshqa qonun hujjatlarini takomillashtirish, jazolarni kuchaytirish orqali jinoyatchilar faoliyatiga huquqiy to'siq qo'yish zarur. Texnik jihatdan esa ilg'or vositalarni joriy etish kerak. Shu bilan birga, sun'iy intellekt modellari va blokcheyn tahlil vositalarini ishlab chiqish hamda telekommunikatsiya operatorlari va messenjerlar bilan ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish taklif qilinadi.

Takliflar:

1) Huquqiy bazani kuchaytirib, jinoyatlar uchun jazo choralari va to'lov tizimlarini qaytadan ko'rib chiqish;

2) Kiberxavfsizlik mutaxassislarini malakasini oshirish va maxsus o'quv kurslarini joriy etish;

3) Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qiluvchi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

4) Messenjer bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, qonuniy so'rovnomalar asosida foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarini almashishga erishish;

5) aholiga profilaktik targ'ibot ishlarini olib borish. Ushbu kompleks chora-tadbirlar Telegramda psixotrop moddalar savdosini kamaytirib, jinoyatga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNODC ROCA (2024). "UNODC training course on online drug investigations in Uzbekistan"
2. Vorobyov N. (2024). "Drug dealers to Putin critics: behind Durov's Telegram audience", Al Jazeera
3. Umkulov A. (2025). "7 kunda jami 16,3 kg giyohvandlik vositasini saqlayotgan shaxslar aniqlandi — Toshkent viloyatida IIBB", Yuz.uz
4. Boronov Y. (2023). "DXX telegram kanallari orqali narkosavdo bilan shug'ullangan 20 nafar shaxsni qo'lga oldi", Yuz.uz
5. Ulkanboeva R. (2024). "1 mlrd so'mlik sintetik narkotik saqlagan 'zakladchik' ushlandi", Qalampir.uz
6. Business Today (2024). "Telegram to share user data with law enforcement..."
7. Tech Xplore (2024). "AI system reveals hidden drug dark jargon..."
8. Dang Y. (2025). "China's next-gen surveillance tools get AI boost to target Telegram", South China Morning Post